



O`ZBEK SHE`RIYATIDA IJROVIY LIRIKA

(Usmon Azim ijodi misolida)

Umida Abdullayeva

Tadqiqotchi

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya :Maqolada ijroviy lirika tushunchasining tom ma`nosi, yangi o`zbek adabiyotida mavjud asarlarning mazmuniga ko`ra ijroviy lirika tushunchasiga yondashuv tufayli paydo bo`lgan ziddiyatlarni o`rganish va ularni hal etish bilan bir qatorda, turli tadqiqotlarning paydo bo`lishida ijroviy lirikaning ta`siri ko`rsatilgan bo`lib, yangi o`zbek she`riyatidagi ijroviy lirika namunalarida ilgari surilgan g`oyalar, falsafiy fikr-mulohazalar Usmon Azim ijodi misolida tahlil qilindi. .

***Kalit so`zlar:** ijroviy lirika, lirik qahramon, immanent, lirik she`r, ijro mahorati, folklor, mif, mifologiya, kredo*

Shoir shaxsiyati bilan lirik qahramonning mos tushmasligi ochiq ko`rinib turgan she`rlar ijroviy lirika deb ataladi. Buning sababi shuki, ularda shoir o`zga shaxs ruhiyatiga kiradi, go`yo uning rolini o`ynaydi va asarda uning qalbini suratlantiradi. Ya`ni ijroviy lirikada ham kechinma “men” tilidan izhor qilinadi, biroq bu “men” endi shoirdan mutlaqo boshqa, kechinma subyekti endi tamom “o`zga” shaxsdir. Odatda, ijroviy harakterdagi she`rlarning sarlavhasi, sarlavha ostidagi izohi, epigrafi yoki asosiy matnning o`zida kechinma egasiga ishora mavjud. Masalan, Cho`lponning “Xizmatchi bola qo`shig`i” hamda “Qadoqchi qo`shig`i” she`rlarining sarlavhasiyoq ularda kechinma egasi “o`zga shaxs” ekanligini anglatadi.

Ijroviy lirika xarakteridagi she`rlarning mazmuni birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadigan lirik she`r hisoblanadi. Bunda lirik qahramonning rol ijro etish

xarakterini matndan tashqari omillar ham belgilashi mumkin. Xususan, o`quvchi muallif shaxsi haqidagi bilimlarni immanent(shoir shaxsining ichki xususiyatlariga xos, ichki tabiatidan kelib chiqadigan xususiyatlari)ni uning ijodidagi ijroviy lirika namunalaridan bilib olishi mumkin. Ijroviy lirika bu- birinchi shaxs tilidan aytiladigan lirik hikoya bo'lib, muallif fikri o`zga shaxs tilidan o`quvchi ongiga singdiriladi. Lirik "Men"ning ijro xarakterini ochish uchun matndan tashqari omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarga shoirning immanent xususiyati asos sifatida kiritiladi.

Millatparvar shoir Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon milliy ozodlik uchun kurashgan shoirlardan biri. Shoir immanenti - birovga bo`ysunmaslik, g`urur va oriyat. Qaramlik, hayotda birovga bo`ysunib yashash uning xarakteriga yot xususiyat. Bu jihat shoirning "Qiz qo`shig`i" ijroviy lirikasida o`z aksini topgan. She`rda lirik qahramon erkinlik istaydigan o`zbek ayoli orasidan tanlanib, uning tilidan o`ksuk ko`ngul qushining qafasga tushib, erkin nafasga yetolmagani, bunday siqiq qafasda yayrab bo`lmasligini "Yomon kunlar tushdi mening boshimga" deb izohlaydi. Muallif ayoga teran hamdardlik bildirgan holda, uning tabiiy haq-huquqlarini himoya qilib bong uradi, qalblarni uyg`otishga harakat qiladi. She`r mazmuni yuksak badiiy mahorat bilan o`ziga xos poetik obrazlar orqali ifodalanadi. Qaro kunlarning botishi qip-qizil qonli osmonga o`xshatilishi, yomon hidga to`lib tonglarning otishi, jannat kabi bog`larning bulbulisiz qolishi, osmon bo`yi tog`larning qulunsiz qolishi kabi metaforalar erksizlik natijasini ko`rsatadi.

Cho`lponning fikricha, sho`ro tuzumi va rus istibdodi boshqa-boshqa narsalar emas. Biri ikkinchisining bevosita davomidir. Shakli va vositalari o`zgargan, xolos. Bu-muhim nuqta.

"Qo`zg`alish" she`rida yozadi:

Ey! Sen meni qul o`rnida ishlatuvchi afandi,

Titra, qo`rqkim, bog`liq quling bosh ko`targan kuch endi!

Bu fikr-tuyg`ular, shoirdagi ehtiros to`la g`azab va nafrat sho`rolar davrida tarbiya topgan o`quvchi uchun shamol tegirmonlariga dag`dag`a qilayotgan Don Kixotning jazavasi bo`lib tuyulishi mumkin. Lekin, aslida, shoir vaziyatni juda teran anglagan edi.

Bir tomonda , erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomonda ochlik-qahatlik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan “sinfy kurash”, ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Xullas, to`rt tomon ham ihotalangan. Shoirni bu hol larzaga soladi. U “qirilib tugalish dahshatidan” larzaga tushadi.

Ayni paytda. Bu kurashlarning har biri hayot-mamot kurashi edi. Biri ikkinchisi bilan chambarchas bog`lanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga ko`raeng muhimi, erk, istiqloq uchun ketayotgan kurash edi. [7;439-441b]

Yuqorida ta`kidlanganidek, Cho`lpon erksizlikka qarshi kurash va ozodlikka intilish kabi g`oyalarni “Qiz” tilidan lirik hikoya qiladi:

Ko`z yoshimda yuvsam
Yurtning bag`rini.
Tilim bilan so`rsam
Oqqan qonini.
... Qafaslarni buzib,
Uchsam osmonga;
Kishanlarni uzib,
Yetsam jononga!..

O`sha paytda erk va ozodlik uchun kurashish, o`z tuyg`ularini oshkora izhor etish o`zbek xotin-qizlariga yot xususiyat edi. Cho`lpon immanentini qiz obrazida ijro etadi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab, ayniqsa, 70-80 yillar she`riyatida tarixiy shaxslar tilidan yozilgan ijroviy she`rlarning ko`payishi kuzatiladi. Bu narsa, bir tarafdin, milliy o`zlikni anglashga intilishning boshlangani bilan, ikkinchi tarafdin, bu xil she`rlarning “so`z aytish”ga nisbatan kengroq imkoniyat yaratishi bilan izohlanishi mumkin. Masalan, X.Davronning “To`marisning ko`zlari” she`riy to`plami, U.Azimning “Tushlaringizga kiradigan ko`zlar” turkumi aksar shunday she`rlardan tarkib topgan bo`lib, ular milliy o`zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi.

X.Davron “Abulhay so`zi” nomli she`rida olis XV asrda yashagan musavvir Abulhay ruhiyatiga kiradi va uning tilidan yolg`onga asoslangan san`at, hayotni bejab ko`rsatadigan san`at haqidagi fikrlarini izhor qiladi, ijod erkinligi masalasini ko`ndalang qo`yadi. Shuningdek, R.Parfining “Muktibdoh”, “Turkiston yodi” she`rlarida ham tarixiy shaxslar ruhiyatiga ko`chish holati kuzatiladi.

Zamonaviy o`zbek adabiyotidagi ijodkorlar aksariyatining ijodida ham ijroviy lirikaning teran namunalarini uchratamiz.

Aristotelning ta`kidlashicha, shoir “o`z holicha” qolmaydi, balki o`zga shaxsning his-tuyg`ularini uning o`z tilidan “men” shaklida ifoda etadi. Ya`ni ularda lirik sub`yekt ham, lirik kechinma ob`yekti ham shoirdan o`zga shaxsdir. Ma`lumki, o`zga shaxs his-tuyg`ularini ifodalash uchun avval ularni anglash taqozo etiladi, demak, bu o`rinda shoir o`zga shaxsni badiiy idrok etadi. Adabiyotshunos D.Quronov bunday she`rlarni “ijroviy lirika” namunalari deb ko`rsatadi.

O`zbekiston xalq shoiri Usmon Azim ijodida ijroviy lirikaning o`ziga xos ta`sirli va jonli ko`rinishlari mavjud.

Shoir ijodidagi prototip obrazlar tasviri va nutqi, shuningdek, badiiy asarlar qahramonlarining nutqi ifodalangan she`rlarda muallif va qahramon dunyoqarashi o`rtasidagi farq uslubiy va badiiy vositalar bilan ifodalangan. Bu shoirning “men”i bilan lirik qahramon obrazi orasidagi bog`liq va farqli jihatlarni ko`rsatadigan ijroviy lirika namunasidir. “Turdi Farog`iy”, “Maqsud Shayxzoda”, “Usmon Nosirning so`nggi tushi”, “Suflyor monologi”, “Hamlet”, “Go`ro`g`li”, “Sirk.Ilon

o‘ynatuvchi ayol”, “Sirk. Muallaqchi ayol”, “Otello”, “XX asr Otello”, “Brut” kabi sheʼrlar shular jumlasidandir.

Usmon Azim ijodida qo‘shiq hamda xalq og‘zaki ijodi namunasi shaklida yozilgan rolli lirika namunalari ham bor. Shunga ko‘ra, shoir ijodidagi ijroviy lirika namunalarini tuzilishi jihatidan quyidagi guruhlarda ajratishimiz mumkin:

1.Lirik sheʼr tipidagi asarlar- “Turdi Farog‘iy”, “Maqsud Shayxzoda”, “Suflyor monologi”, “Hamlet”, “Sirk.Ilon o‘ynatuvchi ayol”, “Sirk. Muallaqchi ayol”, “Brut”, “Mirzo Ulug‘bekning o‘kinchi”, “Usmon Nosirning so‘nggi tushi”, “Oybekning so‘nggi she‘ri”, “Otello”, “XX asr Otello”, “Gladiator” , “Garrincha” kabi.

2.Mazmunan rivoyat-ertak xarakterida bo‘lgan sheʼrlar-“Baxshiyona” turkumidagi sheʼrlar, “Bahodir va Malika”she‘ri.

3.Xalq qo‘shiqdagi tipida ijro etiladigan sheʼrlar-“Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Mamarayim baxshining bir davrada aytgani”, “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” singari.

Shoir so‘z san‘atkor sifatida sheʼrlaridagi rol qahramonlari xarakteri, ular ijtimoiy tipologiyasining tasviri, tarixiy shaxslarning portreti va xarakterli xususiyatlari, obrazlarning ramziy tavsifi, shuningdek, syujetli vaziyat va xronotop voqeliklarini o‘z uslubiga xos badiiy til bilan ifodalaydi.

Usmon Azim ijroviy lirikasidagi sheʼrlarni mazmunan ikki guruhga ajratish mumkin:

1.Lirik qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg‘uloti va biografik jihati shoir shaxsiyatiga yaqin bo‘lgan (mazkur sheʼrlar protorip obrazlar asosida yozilgan) -“Turdi Farog‘iy”, “Maqsud Shayxzoda”, “Usmon Nosirning so‘nggi tushi”, “Oybekning so‘nggi she‘ri” kabi sheʼrlar .

2.Lirik qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg‘uloti va biografik jihati shoir shaxsidan uzoq bo‘lgan-“Gladiator”, “Brut”, “Suflyor monologi”, “XXasr Otello”, “Otello”, “Bir daraxtning so‘nggi qo‘shig‘i” kabi sheʼrlar.

“Poeziyada (nafis san’atda) tabiiy narsani odam ishonmaydigan qilib tasvirlashdan ko‘ra, g‘ayritabiiy narsani ishonarli qilib tasvirlash yaxshiroqdir”. [2;110]

Usmon Azim she’rlarida lirik qahramon shoir “men”idan chiqib, o‘z xarakter xususiyati hamda ijro(rol)i ko‘rsatilayotgan obraz xarakterini “usmonona til” bilan ko‘rsatib beriladi. “Otello” she’ri (mazmunan lirik qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy saviyasi, mashg‘uloti va biografik jihati shoir shaxsidan uzoq bo‘lgan she’r) buning yorqin dalilidir.

Men sevaman Dezdemonani,
Kiprigiga qo‘ndirmayman gard.
Chorlashmoqda sahnaga meni...
Hozir uni o‘ldirishim shart.
Tinch saodat kezar qonimda,
Muhabbatga ko‘milgan borliq.
Ro‘molcha ham mana yonimda,
Qilmaganman hech kimga tortiq. [17;63-bet]

Inson uchun hayotidagi eng katta fojea-o‘zligiga qarshi chiqish, o‘ziga yoqmaydigan ishni qilish. Ushbu she’rda shoir lirik qahramonning “men”i-o‘zligidan chiqib, Otello rovida ichki kechinmalarini obrazli tarzda ifodalab, o‘quvchiga tanish bo‘lgan o‘sha baxtsiz habash rovida dard va alamlarini ifodalaydi. Tomoshabinni zavqlantirish uchun rol ijrochisi o‘z qalbiga qarshi borishi, samimiy, beg‘ubor tuyg‘ularini Dezdemonaga qo‘shib bo‘g‘ishi, o‘ldirishi kerak.

...Men sahnaga chiqib kelaman,
Dezdemonaxlaydi mas`um.
Dezdemonax, seni sevaman!
Kel, noshud zal istagi uchun-
“Qorday oppoq, marmarday tiniq”
Vujudingga solayin chovut.

Zal dahshatdan tushsin silkinib,
Zal qalqisin, misoli tobut!

[17;63]

She`r so`ngida shoir lirizmga yo`g`rilgan alamli kechinmalarini yuksak pafos bilan o`quvchi ko`z o`ngida gavdalantirib, bu yolg`onchi dunyoda soflik va pokizalikning o`limiga sabab bo`luvchi voqelikni topadi. O`quvchini ana shu xulosaga ishontiradi.

Ne azob bu? Besh asr bo`ldi,
Bo`zlab seni bo`g`aman har tun –
Qo`rqoqlarning ojiz rashki-yu,
Bevafolar qilmishi uchun.

Mazkur she`rda shoir insoniy tuyg`ular zamon va makonda o`zgarmasligi, insonlarning o`zlari turli davr va vaziyatlardan kelib chiqib ularni yuksaltirishi yoki barbod qilishini teran tafakkur, poetik ko`chim va obrazlar vositasida ko`rsatib beradi. Bu esa, ijroviy lirikaning ong asoslarga emas, hissiyotlarga urg`u berilishi qoidasini isbotlaydi.

Har qanday yaxshi she`r markazida o`zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan Inson turadi. She`r xuddi shu insondan, uning tabiati, maqsad va intilishlari, yana-da to`g`risi, inson haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib tushuniladi.
[16;35]

Shoirning “Usmon Nosirning so`nggi tushi” she`ri zamon va makon tushunchalarini o`quvchi ko`zi o`ngida voqelantiradi. Turob To`la tomonidan “Usmon she`riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo`ronday! U shunday to`polon va to`lqin bilan keldiki, uncha-muncha she`riy uslub va ijodni to`s-to`s qilib yubordi. Uni o`zimizda “O`zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo`ldi”, deb yozishdi”[15;174] deb ta`riflangan shoirning dard-u alamlarini tasvirlaydi. Usmon Nosirning hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanish bo`lgan

o‘quvchida shoirning “men”i rol ijrochisi bo‘lgan Usmon Nosir obrazida tarixiy va hayotiy ijod fojeasi haqiqatini o‘ziga xos ravishda ochib beradi.

Men, har holda, Toshkentda edim,
Xadrasida, yo O‘rdasida.
Es-hushimdan ayrilib turdim
Keng shaharning qoq o‘rtasida.

Bizga ma’lumki, Usmon Nosir umrining so‘nggi yillari uzoq Sharqda o‘tgan. Qisqa umrini vatan ravnaqi uchun sarflagan shoir hayotining so‘nggi kunlari tush motivi vositasida ochib beriladi.

Tongotarga boqdim-da, birdan-
Ko‘kragimni qoldim quchoqlab,
Ufq nega qonga belangan?
Kim osmonni ketdi pichoqlab?

She’rda bejizga so‘nggi tushga urg‘u berilmaydi. Kun botishi tasviri, pichoqlangan osmon tasviri shoir hayotining fojeaviy yakunini bashorat qiladi.

“Turdi Farog‘iy” she’rida tarixiy voqelik o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘zining achchiq haqiqati bilan namoyon bo‘ladi. Turdi saroyda faoliyat ko‘rsatgan davr xonliklarda ichki nizolar avj olgan, hukmdorlarning maishiy buzulqlik va bir-birlariga yovlashib, bosqinchiliklari yuqori darajaga chiqqan suronli yillar edi. Ayniqsa, 92 o‘zbek urug‘ining har biri aymoqlarga bo‘linganidek, urug‘ boshliqlari, saroydagi vakillarining mansab talashishi, hokimlik uchun kurashlari ham davlatning parchalanishiga olib kelayotgan, buning ustiga, goh Qo‘qon, ba’zan Xiva xonlari, ayrim paytlarda esa Buxoro amirlari ularga qarshi tez-tez hujum qilib turar, bularning bari O‘rta Osiyo taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatardi.

Eng fojialisi, urug‘ boshliqlari mansabga intilib, hatto, qizlariniyam haramga boshlab kelar, beklarning bu qiliqlari, maishiy tiyiqsizligi, or-nomusini yo‘qotganligi o‘sha urug‘ning obro‘sini to‘kar, izzat-nafsigaga tegardi.

El orasida islom dinining markazi hisoblangan qadim va navqiron Buxoroda avj olgan buzuqchiliklar, toj-taxt uchun kurashlar va eng ayanchlisi, otalar o'z nafsi, mansabini saqlab qolish yo'lida hatto qizlarni ham olib kelib haramga topshirganliklari millat tanazzuliga olib kelishi Turdi Farog'iy tilidan ifodalanadi. O'zligini yo'qotgan elni tashlab ketayotgan shoir bu holatni Buxoro atrofidagi cho'llarda, sahroning o'rtasida hamma narsaning, hatto shamolning qovjirab yongani, garmisel hammayoqni chilparchin qilgani, Buxoroning osmoni chilparchin bo'lishiga faqat ugina isyonkor tabiati sabab ko'nmagani, sabrning gavarasi bo'lgan saksovulgina yerga chirmashib ketgani uchun kuymay qolganini tasvirlab, saksovulga alamlari va dardlarini to'kib soladi:

O'layapman, saksovul, hey,
Aytsam, armonlarim ko'p.
Bu elni, bu tuproqni
Uloq qilib chopishdi...
... Ko'ksimda otash qaynar,
Bo'g'zim bormoqda yonib.
Til-u dilning orasi
Olov bilan tutashdi...

Voqelikni obyektivlashtirish uchun shoir olov obrazidan foydalanadi. Olov yo'lida uchragan narsani yoqib kulga aylantirishi bor gap. Mamlakatdagi boshboqdoqlik ham barcha muqaddas tuyg'ularni kulga aylantirdi, ammo, isyonkor shoirmi emas. U yurtidan chiqib ketdi va O'zbekistonning porloq kelejagiga ishondi. Vaqtlar o'tishi bilan otalarning belida shoir kutgan kelejagiga uyg'ondi, natijada:

Buxoroning ustida
Osmon... Bus-butun osmon.

Usmon Azim ijodida turli kasb egalari tilidan bayon etilgan ijroviy lirika namunalari uchraydi. Shoir bu orqali inson qaysi kasbni egallamasin, hayotda kim

bo‘lmasin, o‘z haqiqati va tuyg‘ulari borligini ifoda etadi. “Garrincha” she‘ri shular jumlasidan. She‘rda 20-asrdagi eng kuchli futbolchilar ro‘yxatida 8-o‘rinni, Janubiy Amerikadagi eng kuchli «charm to‘p ustalari» orasida esa 4-o‘rinni egallagan, Braziliya milliy futbol tarixida Peledan keyin ikkinchi eng zo‘r o‘yinchi sanalgan, ”Xalq quvonchi”, "Qiyshiqoyoq farishta“, ”Futbolning Charli Chaplini“, ”Buyuk oqsoq” degan laqablarga ega bo‘lgan Garrincha (asl ism-sharifi Manuel Fransisku dus Santus) ning hayoti va tanazzuli oqibati badiiy tarzda tasvirlanadi:

Qarsaklar yog‘ildi mening sha`nimga.
Zarb!.. Zarb!.. Darvozabon tosh kabi qotdi.
Bir surur hayqirib kirdi tanimga,
Stadion o‘zin falakka otdi.

Iste`dodi sabab muxlislar orasida mashhur bo‘lgan, yashil maydon va ko‘ptokni iqbol deb bilgan, do‘stlarining tabrigidan mast bo‘lib yurgan, umrining aksar qismi yashil maydonlarda o‘tgan Garrinchaning o‘yini quyidagi poetik chizgilar bilan ifodalanadi:

...Dahoning o‘yini hamisha ulkan,

San`atdir, dahoning g‘alabalari...

Butun iste`dodini ishga solib kelgan kishi birgina xatolikka yo‘l qo‘ysa, barcha uning kamchiliklarini ko‘ra boshlaydi. Daho mag‘lubiyati – katta yo‘qotish, u barcha g‘alabalarni unut qildirib yuborishi mumkin.

Futbol! Meni asra shu futbol haqqi!
Nahot, hatolarga kunlarim bog‘liq?
Umrim-yuzga nogoh tushgan tarsaki,
Yam-yashil maydonda qoldi daholik.

She`r syujeti haqiqat va san`atning o`zaro ta`siri, adabiy va tarixiy syujetlardan foydalangan holda poetik chizgilar bilan ochib beriladi. Garrincha hayoti misolida ayrim insonlardagi oqibatsizlik va sadoqatsizlik natijasida ko`pgina yaxshiliklari unutilib, birgina xatolik (butun umrga tatiydigan) yo`l qo`ygan kishining taqdiri ayanchli tugashi mumkinligi ta`kidlanadi.

Menga ochilmagay qayta bu eshik,
Stadion! Qara! Bu men-Garrincha!
Menga to`p tekkanda qalqigansan tik,
Qarsaklar chalgansan qo`ling tolguncha.

Yunon mifologiyasidagi "Dedal va Ikar" asotiri insonning hayotiy orzusi bo`lgan ozodlik yo`lidagi harakatlarini ifoda etadi. O`z kasbining ustasi bo`lgan Dedal va uning o`qli Ikar Afinaga ketmoqchi bo`ladilar, biroq, Minos ustani qo`yib yubormadi. Dedal bu holatdan chiqib, o`ziga va o`g`liga, xuddi dengiz ular uchun yopiq bo`lsa, osmon bo`ylab uchib ketishi uchun qushlar singari qanot yasadi. Usta o`g`liga uchishni o`rgatadi va unga juda baland ko`tarilmaslikni buyuradi, aks holda quyosh qanotlar qurilishining tarkibiy qismi bo`lgan mumni eritib yuborishi mumkinligi, shu bilan birga suv uchib ketadigan moslamani namlantirmasligi uchun dengizdan pastroqda ham uchmaslikni ham ta`kidlaydi. Dedal o`g`lini oltin o`rtalikni topish va unga rioya qilishga o`rgatadi. Ammo, otasining nasihatiga amal qilmagan, uchish zavqiga mast bo`lib, qanotlari bilan balandliklarga parvoz qilgan Ikar quyoshda kuyib suvga qulaydi va halok bo`ladi.

Usmon Azimning «Dedal va Ikar»[1;86] she`ri yunon asotir(mif)i asosida yozilgan bo`lib, shoir Dedal va Ikar timsolida ijroviy lirika namunasini yaratdi. Bu o`rinda lirikada «men»-Dedal tasvirida, noan`anaviy nutq tashuvchilarning rol o`ynaydigan qahramonning mifologik xilma-xilligi bilan ichki aloqalari o`rnatiladi.

She`rda mifologik-tarixiy ijro lirikasi haqiqiy dalillar ramziy hodisalar vositasida ochib beriladi:

-Yuragim qo`ymadi, uch deb qo`ymadi,
Falakka intildim, ammo bu hayot

Yerga ko‘maverib tanni, to‘ymadi...

Baribir men qanot yasadim,qanot!...

She‘rning birinchi bandida lirik sub‘yekt – shoirning usta Dedal taqdiri bilan bog‘liq kechinmalari ifoda etilgan. Ya‘ni agar bu o‘rinda qanot yasalishi – lirik kechinma ob‘yekti bo‘lsa, she‘rning ikkinchi yarmida uning kechinmalari bevosita o‘z tilidan ifoda etiladi, ya‘ni u endi lirik sub‘yektga aylanadi va xuddi shu hol uni lirik personaj deyishga asos beradi.

Bolam! Sen ne uchun meni qiynaysan,

Sening ham joningdan o‘tdimi turmush?

Uchish ham azobdir, axir...Bilmaysan!

Uchish – qismat osha – betin zo‘riqish.

Bu o‘rinda tarixiy mif (asotir) syujeti bugungi kun voqeligi bilan qorishiq holatda ochib beriladi. Shoir ijro etilayotgan qahramon nutqi orqali hayotiy haqiqatni o‘quvchi ongiga singdiradi.

Qara! Menga qara! Ahvolimga boq!..

Ammo sen so‘zlaysan qandaydir tushdan!

Uchganning hamisha qismati chatoq,

Yerni-ku gapirma, falak ham dushman.

Jonli poetik obraz, hayotiy haqiqat mavjud she‘rning har bir misrasi o‘quvchini fikrlashga majbur etadi va maqsadli xulosalar chiqarishga undaydi. She‘rda lirik qahramon tilidan aytilgan- garchi padari bo‘lsa-da, unga taqlid qilmaslik; jaydari taqdirga ko‘nikish; hayot davomida ermak uchun it urishtirish; mayxonada tadbir uyushtirish kabi poetik ko‘chimlar ba‘zan kimdan o‘rnak olishni bilmaydigan, dunyoga kelib, yashashdan asl maqsadi nima ekanligini anglay olmayotgan kishilarni o‘ylashga, fikrlashga majbur etadi.

O‘z maqsadi yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan xarakter Ikar timsolida ifodalanib, u lirik qahramonning yuksak pafos bilan yo‘g‘rilgan nasihatiga amal qilmay, halokatga uchraydi.

Behuda yuksaklik esa toldirar!

Past uch! Dengiz ichra parvoz ham ko‘rkam...

To‘xta! Quyosh sari borma! Yondirar!

To‘xta! Qanotlaring kuyadi, bolam!..

Shoir o‘quvchiga hayotda hamma narsada me‘yor bo‘lishi, me‘yor va mezonni anglash insonning oliy saodati ekanligini anglatish uchun Dedal ijroviy lirikasi timsolida ramziy hodisalarni dalillab beradi. Hayotning shafqatsiz ammo, mavjud haqiqatini o‘quvchining ko‘z o‘ngida poetik namoyon qila oladi. Parvozga shaylangan uchuvchi xavfsiz, davomli parvozni amalga oshirishi lozim, aks holda parvoz xatarli yakunlanishi mumkin.

- Hech kimni ayamas rivoj hududi!

Bizni yamladimi? Yo‘qdir e’tiroz:

Kuyib tushayotgan, bolam, vujuding,

Ko‘kda qolgan esa la’nati parvoz!

Rivojlanayotgan, yuksak lavozim va martabalarga erishayotgan inson o‘zligini yo‘qotdimi – hayotda barcha narsani boy beradi. Bu jarayonda u barcha narsasini yo‘qotadi, ammo achchiq tajribadan samarali dars oladi. Shoirning kredosi shu. U o‘zining xayotiy xulosa va fikrlarini mifologik obraz vositasida o‘quvchiga ishonarli va ta’sirli ifodalaydi.

Xulosa Yangi o‘zbek adabiyotida ijroviy lirika tushunchasi lirikaning mazmun jihatidan ajratiladigan namunasi hisoblanadi. Mazmun jihatdan tahlil qilganda, ijroviy lirika janr sifatida bu turi shoir shaxsiyatini ochishga xizmat qiladi. Lirikaning bu turi namunalarida shoirning she’riy xulosasi shoir shaxsiyati va uning o‘z fikrlarini o‘zga shaxs obrazida yetkazib berish mahorati yaqqol ko‘rinadi. Usmon Azim ijodidagi ijroviy lirika namunalari bo‘lgan she’rlarida tasvirlangan lirik qahramon va shoir “men”i uyg’un holda adabiy obrazlar bilan yetakchi va ijodiy ruh erkinligini ijro etuvchi lirikani paydo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim, Usmon. Kollaj: Nazm, baxshiyonalar, nasr, dramaturgiya – T; “Sharq”, 2018. 86-87 b.

2. Arastu. Axloqi kabir. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 110-b.
3. Adabiy tur va janrlar. 3 jildlik. 2 jild. Lirka. – Toshkent: Fan, 1992. – 139 b.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. II tom. –Toshkent: Fan, 1979. – 449 b
5. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I tom. – Toshkent: Fan,1978. – 416 b
6. Baxtin M.M. Sobraniye sochineniy v 7 t. T.6. – Moskva, 2002. – 120 s
7. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug`bek Dolimov, Shuxrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti – Toshkent. “Ma`naviyat”, 2004. – B. 439-441
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O`zbekiston, 2002. – 503 b
9. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b
10. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1986. -408 b.
11. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B.,Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent: O`qituvchi, 1990
12. Korman B.O Лирика и реализм. Иркутск, 1996
13. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish Toshkent
14. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018-480 b.
15. Svetkova M.B. “Жанр и национальная ментальность. Английская и русская ролевая лирика”. Москва
16. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo`chqorov. Adabiyot. – Toshkent: G`afur G`ulom, 2019 -174 b.
17. U.Hamdani Yangi o`zbek she`riyati Toshkent: Adib, 2012. -35 b.
18. Usmon Azim “Saylanma” Toshkent 1995